

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. G'oziev E.E Muomala psixologiyasi T-2001 y
2. G'oziev E.E.Tafakkur psixologiyasi T; «O'qituvchi» 1996 y
- 3.Maklakov,A.G.Umumiy psixologiya:darslik.universitetlar uchun [Matn] /A.G.Maklakov.-Sank-peterburg:Peter, 2007/587 p.-("Yangi asr darsligi" turkumi).
4. Nigora, S., Go'zal, Q., & Shoxista, Z. (2023). O 'SMIR QIZLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHDA OILANING ROLI. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 330-333.
5. Nigora, S., & Munisa, O. K. (2023). SHAXSLARARO MULOQOTDA UCHRAYDIGAN QIYINCHILIKLAR. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 327-330.
6. Nigora, S., Ilmira, Y., & Zulxumor, X. (2023). TORTINCHOQLIK VA UNING PSIXOLOGIK SABABLARI. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 323-326.
7. Hakimova, S. (2023). Ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar ongiga ta'siri. *Zamonaviy psixologiya, pedagogikada fan, ta'lim va amaliyot integratsiyasi: muammolari va yechimlari*.
8. Rixsiyeva, M. va Samatova, N. (2020). INSON PSIXOLOGIYASI VA UNING ETNIK JAMIYATDAGI O'RNI. *www.konferentsiya nashri. com* , 12.
9. Davlataliyevna, S. N. (2022). Oiladagi salbiy muloqotning farzand psixologiyasiga ta'siri. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 475-478.
10. Davlataliyevna, S. N. (2022). UMUMIY PSIXOLOGOYA VA TURLI XIL PSIXOLOGIK AMALIYOTLAR. *Scientific Impulse*, 1(5), 820-822.
11. Davlataliyevna, S. N. (2022). PSYCHOLOGY AND ITS PRINCIPLES. *Scientific Impulse*, 1(5), 823-826.

IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARNI JAMIYATGA MOSLASHTIRISHDA IJTIMOIIY XIZMAT KO'RSATISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

s.f.n. Hakimov Orziqul Melievich

O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali

hakimovorziqul333@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada imkoniyati cheklangan bolalar bilan ijtimoiy ish olib borish yo'llari ularning jamiyatga moslashish jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlari va amaliy jihatlari yoritilgan. Imkoniyati cheklangan bolalar bilan muloqotga kirishish, ularni ham sog'lom insonlar qatorida imkoniyatlarini yuzaga chiqarishda ijtimoiy ish va sotsiologiya mutaxasislariga zaruriy va ilmiy tavsiyalar berilgan. Bu maqolada bugungi kunda ijtimoiy hayotda dolzarb hisoblangan imkoniyati cheklangan bolalar hayotini yaxshilashga, ularning jamiyatda faol o'zini namoyon qilish borasidagi asosiy echimlar ko'rsatib berilgan. Ilmiy maqolada qayd etib o'tganki, imkoniyati cheklangan bolalarni sog'lom hayotga qaytarish, ular bilan ijtimoiy ish olib borish yo'llari va

samarali yo‘nalishlari ochib berilgan. Ayniqsa, bu turdagi bolalar xuquqlarini himoya qilish ular bilan muomala qilish jarayonlari hususida zaruriy tavsiyalar berib o‘tgan.

Kalit so‘zlar: Imkoniyati cheklangan, nogiron, ruhiy holat, ichki hissiyot, muloqot qilish, samimiy, ma’naviy olam, mehr-oqibat.

Kirish. Dunyoda aholining demografik holatiga ko‘ra, nogironligi bo‘lgan shaxslar sonining o‘tib borish tendensiyasi kuzatilmoqda, bunda jahondagi aholining 15 % nogironligi bo‘lgan insonlar tashkil etib, shundan 100 milliondan ortig‘i bolalar hisoblanadi [1]. Darhaqiqat, nogironligi bo‘lgan bolalarning ko‘payishi esa har bir davlatning istiqboliga xavf solib, bolalarni ijtimoiy himoya qilishga oid davlat siyosatini amalga oshirishga sabab bo‘ladi. Bunda inklyuziv jamiyatni rivojlantirishga xizmat qiluvchi nogironlikni inson huquqlarining sub’ekti sifatida tan olinishi, ularga nisbatan ijtimoiy yondashuvni qo‘llash, ijtimoiy himoyani kuchaytirishga qaratilgan tendensiyalarni yanada rivojlantirishni taqozo etadi. “Jahonning yirik ilmiy markazlarida nogironligi bo‘lgan bolalarni ijtimoiy himoyalash yo‘nalishida bir qator tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada, nogironligi bo‘lgan shaxslar hayot sifatini oshirishga qaratilgan baholash mezonlarini ishlab chiqish, nogironligi bo‘lgan bolalarga nisbatan stigma va diskriminatsiyaga barham berish, jamiyatda ularga nisbatan yuzaga keladigan noqulayliklarni kamaytirish, mahsulot va xizmatlarning qulayligini ta‘minlash, teng huquqlilik siyosatini olib borish, oila qurish huquqini ta‘minlash, ularni davolash, inklyuziv ta‘lim berish orqali jamiyatga uyg‘unlashtirish va ijtimoiy himoya qilishda kompleks yondashuv zarurati ilgari surilmoqda”[2].

O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng har bir sohada islohotlar amalga oshirildi. SHuningdek, sohalarni rivojlantirish bilan birgalikda eng asosiy e‘tibor inson manfaatlarini taminlash, ularning xohish istaklari, eng yuksak orzulari, ko‘zlagan maqsadlariga erishishga, har tomonlama qulayliklar yaratish istagi eng oldingi maqsad sifatida qo‘yildi. Ayniqsa kam ta‘minlangan oilalarga har tomonlama yordam berish, nogironlarni ham o‘ziga xos ijtimoiy himoya qilish masalalariga jiddiy e‘tibor berila boshlandi, hamda bu ishlar samarasi va davomiyligi bugungi kungacha og‘ishmay amalga oshirilayotganligi diqqatga sazovordir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.

Sotsiologiyaning klassik nomoyondasi E.Dyurkgeym atamalar lug‘atida ijtimoiy moslashuv tushunchasini quyidagicha ta‘riflaydi, “ijtimoiy moslashuv bu - individ tomonidan ijtimoiy me‘yorlarning o‘zlashtirilishidir. Individning moslashuvi va jamiyatning moslashuvi sifat va miqdoran yagona jarayon bo‘lib, “moslashuv” va “ijtimoiylashuv” tushunchalari esa – sinonimlardir. Biroq jamiyatning me‘yoriy modeli ideal darajada emas. Pozitivizm konsepsiya ijtimoiy moslashuv nazariyasini ochib berish uchun zarur, biroq etarli bo‘la olmaydigan metodologik asos sifatida talqin etiladi”[3]. M.Veber bir vaqtning o‘zida bir qancha o‘zaro bir-birini inkor etuvchi me‘yorlar hambo‘lishi ehtimoli mavjudligini ta‘kidlagan [4]. Ushbu yondashuv individning shakllanishida me‘yorning ahamiyati hamda me‘yorning shakllanishida individning rolini ko‘rsatadi. SHunday qilib, nisbatan moslashgan inson “me‘yoriy” emas, aksincha “ratsional“, garchi “me‘yoriy” inson etarlicha “ratsional” bo‘ladi. M.Veber insonning birlamchi (ehtimol nisbiydir), jamiyatning esa ikkilamchiligiga ishora qiladi, bu esa ijtimoiy moslashuvni tushunishimiz uchun juda muhimdir.

T.Parsoncning ijtimoiy moslashuv borasidagi qarashlari ham qiziqarli. Uning “muvozanatdagi jamiyat” konsepsiyasi individning mazkur muhitda ustuvor ahamiyatga ega bo‘lgan muhim ijtimoiy me’yorlarni o‘zlashtirishi davomida kechadigan individ hamdaijtimoiy muhit ehtiyojlari orasidagi muvozanatga bag‘ishlangan. Muvozanat bor ekan –jamiyat barqaror, muvozanat bo‘lmasa – ijtimoiy nizo sodir bo‘ladi. Jamiyatning muhim vazifasi – ushbu muvozanatga intilish, garchi T.Parsoncning fikricha, absolyut muvozanatganerishib bo‘lmaydi. Individning ehtiyojlari va ijtimoiy me’yorlar – dinamik qiymat bo‘lib, ularning mos kelishi kutilmaganda va faqat qisqa muddatgagina sodir bo‘lishi mumkin. T.Parsons “moslashuv” va “ijtimoiy muhit” atamalaridan foydalanib, inson har gal umuman jamiyat bilan emas, balki uning katta bo‘lmagan qismi bilan o‘zaro munosabatlarga kirishadi,deb ta’kidlagan.[5].

Shaxsning turmush faoliyati cheklanganligi uning o‘z-o‘ziga xizmat qilish, yurish, yo‘lni topa olish, muloqot qilish, o‘z xatti-harakatini nazorat etish, shuningdek mehnat faoliyati bilan shug‘ullanish qobiliyati yoki imkoniyatini to‘la yoxud qisman yo‘qotganligida ifodalanadi. Nogironlar o‘z navbatida aqliy imkoniyati cheklangan hamda jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslar guruhiga bo‘linadi. Bu turga mansub insonlar jamiyatimizda borligini hech kim inkor etolmaydi. SHunday ekan, bu turdagi nogironlarning jamiyatda o‘z o‘rnini topishiga ko‘maklashish, ularning ruhiyatini ya’ni psixologiyasini ijobiy tomonga o‘zgartirish, yonidagilar bilan munosabatlarini yaxshilash, ertangi kunga qiziqishini va ishonchini oshirish ijtimoiy ish xodimining asosiy vazifalar hisoblanadi. SHunday ekan, biz imkoniyati cheklangan bolalarga ijtimoiy xizmatni ko‘rsatishda birinchi navbatda ularning ruhiyatini sog‘lomlashtirishga va jonlantirishga e’tibor qaratishimiz hamda psixologiyasini o‘zgartirib, yangi muhitga yangi o‘zgarishlarga tez moslashishi uchun harakat qilishimiz lozim. Ruhiy xolatdan tashqi qiyofa va xatti-harakatga nisbatan ham yaqqolroq dalolat beruvchi narsa, albatta, aytilayotgan gap-so‘z va uning aytilish ohangidir. Mana shu sababli imkoniyati cheklangan bolalar bilan ijtimoiy xizmatni olib borishda, ijtimoiy ish xodimlari zaruriy mashg‘ulotlaridan o‘tgan bo‘lishlari, hamda davomiy ravishda ilmiy, amaliy tajribalarini oshirib borishlarini ta’minlashlari kerak bo‘lib, bunga: bolalarning xuquqlari va qonun, bolalarga nisbatan zo‘rovonlik, shu bilan birgalikda imkoniyati cheklanganlarning jismoniy, ruhiy va aqliy nuqsonlari bilan bog‘liq jarayonlar haqida aniq tushunchaga ega bo‘lishlari lozim. SHu bilan birgalikda ijtimoiy ish sohasi mutaxassislari imkoniyati cheklangan bolalar kimligini, va ular qanday xolatda ekanligi borasidagi, aniq malumotlarga ega bo‘lishlari, hamda bu turdagi insonlarda kechadigan barcha o‘zgarishlar va nuqsonlarni xisobga olgan xolda xizmatni olib borish jarayonlari yaxshi samara beradi.

Tadqiqot metodologiyasi.

“Yurtimizda inson manfaatlarini ta’minlash, mehr-oqibat va o‘zaro hamjihatlik muhitini yanada mustahkamlash, ayniqsa nogironlar, yolg‘iz keksalar, va kam ta’minlangan oilalarning, umuman ko‘mak va yordamga muhtoj xech bir insonning davlat va jamiyat e’tiboridan chetda qolmasligiga erishishdan iborat” [6]. Albatta, inson qadri qadr topgan mamlakatimizda shu kabi imkoniyati cheklangan insonlarga hususan nogironlikga ega bo‘lgan bolalarga ijtimoiy xizmatni ko‘rsatish, ular manfaatini yuqori darajada himoya qilish muxim masala. ”YUrtimizda

qadimqadimdan insonlar o'rtasida mehr-oqibat, bir-biriga yordam berish, yonidagilarning holidan xabar olish kabi ezgu odatlarimiz mavjud bo'lgan. Masalan, ezgu odatimizga aylanib ketgan mehr-oqibat tushunchasini oladigan bo'lsak, uning juda tarixiy, milliy, diniy ildizlar borligini ko'rish mumkin. Bu avvalo, insonning inson bilan, qo'shning-qo'shni bilan, qarindoshning qarindosh, oilaning oila bilan, eng muhimi, shaxsning jamiyat bilan uyg'un bo'lib yashashini, etim-esir, beva-bechora va nogironlarga, musofirlarga sahovat ko'rsatish, sidqidildan, beg'araz yordam berishni anglatadi va bunday hususiyat halqimizning ma'naviy olamiga singib ketganini hech kim inkor etolmaydi" [7]. Mana shu ezgu amallarni davom ettirish, imkoniyati cheklangan bolalarni jamiyatga moslashtirish eng zarur vazifalarimizdandir. Bugungi kunda nogironlarning jismoniy fizologik kamchiliklarini va bu vaziyatlar bilan bog'liq o'ziga xos o'zgarishlarni bilish, bilan birgalikda ularning ma'naviy olami, ruhiy holati, psixologiyasi, ichki kechinmalari, hissiyotlarida kechadigan jarayonlarni chuqurroq o'rganishni va ko'proq tadqiq qilishni taqozo qilayotganligi, kechiktirib bo'lmas haqiqatdir. Jismoniy yoki aqliy nuqsonlari borligi tufayli turmush faoliyati cheklanganligi munosabati bilan ijtimoiy yordam va himoyaga muhtoj bo'lgan shaxs nogiron hisoblanadi [8].

Tahlil va natijalar

1. Nogironligi bo'lgan bolalarning statistikasini yurituvchi, YAgona reestrni tashkil etish.

2. Nogironligi bo'lgan shaxslarning ijtimoiy moslashuvi, ularning kamsitilishiga yo'l qo'yilmasligini ta'minlash hamda oila, jamiyat va davlat bilan o'zaro bog'liqligini kuchaytirish bo'yicha, shu jumladan xorijiy davlatlar tajribasini hisobga olib, maxsus ijtimoiy lavhalardan foydalangan holda olib boriladigan tushuntirish ishlarini olib borish va jamiyatning nogironligi bo'lgan shaxslarga nisbatan munosabatini o'zgartirish;

3. Nogironligi bo'lgan bolalar to'g'risida aniq statistik ma'lumotning mavjudligi ularni himoya qilish uchun ajratilayotgan mablag'larni manzilli va samarali sarflanishiga olib keladi.

Xulosa va takliflar

1. Nogironligi bo'lgan shaxslarga homiylik yoki xayriya ob'ekti emas balki, ularni jamiyatga uyg'unlashtirish, rehabilitatsiya qilish, jamiyatdagi turli hil to'siqlarni bartaraf etish (nogironligi bo'lgan shaxslarga nisbatan mulohaza va stereotiplar, ular uchun moslashtirilgan transportlarning yo'qligi, axborot olishning yo'qligi, turar joy va ijtimoiy ob'ektlarga kirishdagi noqulayliklar) nuqtai nazaridan yondashish ularning o'z-o'zini baholashlarini oshish imkonini beradi va ularga tenghuquq hamda imkoniyat uchun kuch ado etadi.

2. Nogironligi bo'lgan bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimida ijtimoiy ish amaliyotini tatbiq etish. Professional ijtimoiy xizmat tizimi yaratiladi. Mavjud ijtimoiy xizmat turlari kengayadi. Ushbu xizmatlar ijtimoiy ish amaliyotining keng tarqalgan zamonaviy texnologiyalari hisoblangan "keys-menejment" usuli asosida amalga oshiriladi.

3. Nogironligi bo'lgan bolalar bilan qisqa muddatli chora-tadbir ko'rish emas, balki ularni va oila a'zolarini qiyin hyotiy vaziyatdan chiqarishga, normal hayotga

qaytishini ta'minlashga erishiladi. Nogironligi bo'lgan bolalarning institutsional muassasalarga tushishining oldi olinadi.

4. Nogironligi bo'lgan bolalarning ota-onalari va oila a'zolari bilan muntazam ishlash, seminar-treninglar, davra-suhbatlari, uchrashuvlar o'tkazish. Bunday farzandlari bor ota-onalar o'rtasida o'zaro ko'mak berish guruhlarini tuzish. Nogironligi bo'lgan bolalarning ota-onalarining bolani parvarish qilish va tarbiyalash, bunday bolalar uchun davlat tomonidan berilgan huquq va imtiyozlardan xabardorligi oshiriladi.

5. Nogironligi bo'lgan bolalar erta bosqichda, ehtimol tug'ilganidan boshlab, reabilitatsiya qilinsa, buning samarasi 70-80% gacha ko'tarilishi mumkin. Bu nafaqat nogironlikni engillashtiradi, balki bolaning ijtimoiy integratsiyasini ham ta'minlaydi.

Xulosa shundan iboratki, jamiyat nogironligi bo'lgan bolalarga achinish ko'zi bilan emas, aksincha asosiy e'tiborini ularning huquqlariga qaratishi kerak. Shundagina ularni jamiyatning to'la huquqli a'zolari sifatida ko'rish mumkin bo'ladi va ijtimoiy moslashuviga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Obnovlennaya informatsiya o semdesyat chetvertoy sessii Vsemirnogo assamblei zdavooxraneniya – 27 maya 2021 g. URL: <https://www.who.int/ru/news/item/27-05-2021>

2. Komilov F. O'zbekistonda nogironligi bo'lgan bolalarni ijtimoiy himoya qilishni institutsional takomillashtirish mavzusida yozilgan sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Toshkent 2022-yil 3-bet

3. Dyurkgeym E. Sennostnye i realnye sujudeniya / E. Dyurkgeym // Sotsiologicheskie issledovaniya. 1991. № 2.

4. Veber M. Osnovnye sotsiologicheskie ponyatiya / M. Veber // Izbr. proizvedeniya. M., 1990.

5. Parsons T. Funktsionalnaya teoriya izmereniya / T. Parsons // Amerikanskaya sotsiologicheskaya mysl. M., 1994.

6. Mirziyoev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi.-Toshkent: O'zbekiston, 2017. – B. 25.

7. Nazarov Q. Manaviy qadriyatlar va inson qadri.-Toshkent: Ma'naviyat, 2011 – B. 10.

8. O'zbekiston milliy ensklopediyasi.-Toshkent: Davlat ilmiy nashriyoti, 2003. – B. 375.

9. Насиров Б. XX АСРНИНГ 30-80 ЙИЛЛАРИДА ЎЗБЕКИСТОНДА УМУМИЙ ОВҚАТЛАНИШ ТИЗИМИ ТАРИХИДАН //ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ. – 2022. – Т. 5. – №. 1.

10. Nasirov B. Catering In Uzbekistan From The History Of The System //The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research. – 2021. – Т. 3. – №. 02. – С. 11-15.

11. Хосилмуродов И. О 'zbekistonda bag 'rikenglik va millatlararo totuvlik g'oyalarining ijtimoiy hayotdagi ahamiyati //Общество и инновации. – 2021. – Т. 2. – №. 11/S. – С. 16-24.

12. E'tiborxon Mallayeva S. M. МАФКУРА ВА МАФКУРАВИЙ КАТЕГОРИЯЛАР ЎРТАСИДАГИ ЎЗАРО МУНОСАБАТНИНГ НАЗАРИЙ ЖИ //АТЛАРИ, Архив Научных Публикаций JSPI. – 2020.
13. Рахматов Х. Б. БУХОРО АМИРЛИГИ АҲОЛИСИНИНГ ЭТНИК ТАРКИБИ ХУСУСИДА (XIX асрнинг иккинчи ярми–XX аср бошлари) //ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ. – 2021. – №. SI-3.
14. Ortikov O. K. et al. Views of eastern thinkers on the development of intellectual abilities in the scientific heritage //ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL. – 2021. – Т. 11. – №. 1. – С. 211-214.
15. Хакимов О., Қурбонов З. ПЛАСТИКЛИГИ КАМ ТУПРОҚЛАР АСОСИДА ЕНГИЛ ТЎЛДИРУВЧИЛАР ОЛИШ ИМКОНИЯТЛАРИНИ ЎРГАНИШ //Solution of social problems in management and economy. – 2022. – Т. 1. – №. 5. – С. 58-64.
16. Boltaeva M. J., Kh O. Ortikov. Features of the scientific heritage of eastern thinkers about the attitude of parents to the child //Society and innovations. Special. –2021. –No. 2. –С. 469-474.
17. Kumakovich T. A. et al. “RAQAMLI UNIVERSITET” TARAQQIYOT OMILI SIFATIDA //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2022. – С. 196-199.
18. Xosilmurodov Islom, Kalandarov Mexroj Abu Nasr Farobiy Falsafasida axloq masalasi. Pedagog respublika ilmiy jurnali. 2023.04.15. 434-437b
19. Islam Hasilmurodov. SOCIO-PHILOSOPHICAL IMPORTANCE OF THE SCIENTIFIC WAY OF THINKING. WEB OF SCIENTIST: INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH JOURNAL. 2022. Noyabr. 138-147b.

SPORTCHILARNI TAYYORLASH JARAYONIDA PSIXOLOGIK QO‘LLAB-QUVVATLASHNING AHAMIYATI

Axmedova F.S.

Kirish. Sport psixologiyasi - sport faoliyatidagi psixologik mexanizmlarning namoyon bo‘lish va shakllanish qonuniyatlarini o‘rganuvchi psixologik fan sohasi.

Sport psixologiyasi - psixologiya sohasi; sport musobaqalari va mashkdar vaqtida inson psixikasining holati, guruhii munosabatlarning psixologik qonuniyatlarini tadqiq qiladi. Sport psixologiyasi 20-asrning 60—70y.laridan rivojlana boshladi. Sport psixologiyasining asosiy vazifasi sportchilarning psixik va jismoniy kamolotiga ta’sir o‘tkazuvchi muhim shartsharoitlarni yaratib berishdir. Bundan tashqari, Sport psixologiyasi sportchilarning shaxs sifatida rivojlanishiga, yutuqqa erishishlariga psixologik yordam ko‘rsatish bilan ham shug‘ullanadi. Murabbiy bilan shogird munosabatlari, o‘zaro ta’sir, guruhii moslik, o‘zaro yordam, jamoaviy iliq ruhiy muhit, o‘zini o‘zi boshqarish muammolari ham tadqiq etiladi. Sportchilarni muvaffaqiyatsizlik tufayli yuzaga kelgan stress, depressiya holatlaridan olib